



YUKSALISH MAKTABLARIDA MILLIY QADRIYATLAR VA TARBIYAVIY MUHITNING AFZALLIKLARI

Muallif: Umarova Gulhayo Murodiljon qizi¹

Affiliyatsiya: Chirchiq shahar Yuksalish maktabi psixologi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17332459>

ANNOTATSIYA

Siz ushbu maqolada Yuksalish maktablaridagi ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim va milliy o'zbekona qadriyatlar ruhida sug'orilayotgan yosh avlodni ta'lim tarbiya jarayoni haqida ma'lumotlar olasiz. Yoshlarni androidlarga qaramlikdan ozod etish. "Har daqiqa — kelajakka sarmoya." Tarbiya jarayoniga e'tiborni kuchaytirish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekona qadriyatlar, tarbiyaviy muhit, xorijiy tillarni mukammal o'ranishda yangi texnologiyalar, metodikalar tizimi, yuksalish darslari.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi tubdan yangilanib yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash uchun, yangi islohotlar bilan o'zgarib bormoqda. Rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoni yaqindan o'rganadigan bo'lsak tarbiya va ta'lim hamisha chambarchas bog'liq ekanini ko'ramiz. Zero tarbiyani inson hayotida eng ahamiyatli ekani hech kimga sir emas. Hozirgi ijtimoiy tarmoqlar keng rivojlangan bir vaqtda yosh avlodni internetdagi yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitetini mustahkamlash har doimgidan ham muhim. Yot g'oya va mafkuralar o'sib borayotgan yosh avlodni hayotiga o'rgimchak to'ri bo'lib havf soladi bunday vaziyatda kerakli bilimlar bilan qurollanmasa yoshlarni qimmatli vaqti va hayoti havf ostida qoladi. O'quvchilarni bugungi kunda kitob bilan do'st bo'lishi, darsdan keyingi vaqtda sport va kerakli fanlar bo'yicha to'garaklarda ilm olishi ularning kelajagi uchun juda muhim. Darhaqiqat hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o'tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfon va boshqa moslamalar bilan bog'liq holda. Biz u yerda suhbatlashamiz, do'stlar orttiramiz, ishlaymiz, fotosuratlar jo'natamiz, ta'assurotlar va fikrlarimizni almashamiz, o'yinlardan foydalanamiz, qiziqarli filmlar ko'ramiz, "like"lar bosamiz, ma'lumotlar joylashtiramiz. Axborot resurslarining barcha toifadagi azosi hayotiga yosh bolalardan tortib, qariyalarigacha kirib borganligi—axborot texnologiyalari, zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi bormoqda. Hattoki o'quvchilar uy vazifalarini va kitoblardan olishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni ham sun'iy intellekt imkoniyatlari orqali qidirishni afzal ko'rmoqda. Afsuski ijtimoiy tarmoqlarda foydali ma'lumotlar bilan birgalikda yoshlarni ongini zaharlovchi yot g'oya va mafkuralar ham juda ko'p. Ular aksariyat ko'p vaqtini o'zlari bilmagan holda ijtimoiy tarmoq qarshisida o'tkazmoqda. Albatta bu ularning salomatligi uchun ham havfli. HBSC tadqiqoti, 2022, 11–15 yosh

O'smirlarning 11% dan oshig'i ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan "muammoli foydalanish" (problematic social media behaviour) belgilari ko'rsatadi — nazoratni yo'qotish, zararli oqibatlar paydo bo'lishi. Ayollar (qizlar) orasida bu ko'rsatkich 13%, erkaklarda 9%.

36% yoshlarda doimiy ravishda onlayn do'stlar bilan bog'lanib turish holati qayd etilgan. O'smirlarning ruhiy salomatligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda 14 ta hududdan 22 854 nafar maktab o'quvchisi ishtirok etgan.

Ulardan 15,4% o'rtacha va og'ir xavotir holatini boshdan kechiradi.

9,8% esa depressiya alomatlarini ko'rsatadi. Sinflarda yolg'iz his qilganlar — 16,7%

Ruhiy salomatlik indeksi va umumiy holatiga ko'ra O'zbekistonda ruhiy salomatlik indeksida umumiy ko'rsatkichlar "nazorat ostida bo'lgan darajada" emas, lekin qiyinchiliklar sezilyapti. Masalan, 35 yoshgacha bo'lgan aholida stress va tushkunlik holatlari ko'proq kuzatilishi, smartfonlardan kichik yoshdan va me'yordan ziyod foydalanish bunga sabablaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki ijtimoiy tarmoqlar odob axloq qoidalariga amal qilish insonni hayoti uchun juda muhim. Aks holda ijtimoiy tarmoq saytlari uning nafaqat hayoti, balki salomatligi uchun ham havfli hisoblanadi. Psixologlar yosh avlodni androidlar qarshisida uzoq qolishi ularda bir qancha kasalliklarga chalinishiga hattoki umrbod bubkasalliklar bilan aziyat chekishga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Psixolog va pedagoglarning asosiy xavotiri shuki, yosh avlod ortiqcha darajada telefon, planshet va boshqa android qurilmalarga bog'lanib qolsa, bu ularning ruhiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1. Psixologik xavf- Diqqatning bo'linishi – bola kitob, o'yin yoki muloqotga e'tibor qaratolmaydi, tez chalg'iydi.

Asabiylik va agressiya – telefonni vaqtida berilmasa yoki internet uzilib qolsa, tez jahli chiqadi.

Yolg'izlik va tushkunlik – virtual hayotga qaramlik sabab real muloqot susayadi.

Uyqu buzilishi – tungi o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlar uyqu sifatini buzadi.

2. Pedagogik xavf- O'qishga qiziqishning pasayishi – darsga e'tibor qaratish qiyinlashadi, baholari tushadi.

Ijodkorlik kamayishi – tayyor kontentni iste'mol qilish o'yin va fantaziya o'rnini egallaydi.

Muloqot ko'nikmasi zaiflashishi – sinfdoshlar bilan real suhbat o'rnini "chat" egallaydi.

Intizom buzilishi – dars vaqtida yashirincha telefon ishlatish odatga aylanadi.

3. Jismoniy xavf- Ko'z salomatligi – uzoq vaqt ekranga tikilish ko'rishni yomonlashtiradi. Bo'y-bast buzilishi – qaddini bukib o'tirishdan skolioz, bo'yin og'rig'i paydo bo'ladi.

Kamharakatlik – bola sport va tashqi o'yinlardan uzoqlashadi.

4. Oldini olish choralar - Ota-ona va ustoz nazorati – foydalanish vaqtini cheklash (masalan, kuniga 1–2 soatdan oshmasin). Qiziqarli alternativalar – sport, kitobxonlik, ijodiy mashg'ulotlar, psixologik o'yinlar. Birgalikda vaqt o'tkazish – oilaviy suhbat, sayr, stol o'yinlari. Rag'batlantirish tizimi – masalan, uy vazifasini yaxshi bajarsa, ma'lum vaqt telefon ishlatishga ruxsat. Umuman, psixolog va pedagoglar ta'kidlaydi: android qurilma mutlaqo zararli emas, lekin nazorat qilinmasa, bola hayotida ustun rol o'ynab, qaramlikka aylanishi mumkin.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

"Yuksalish" maktablari haqida gapirganda, ularning ta'lim konsepsiyasida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy bilimni uyg'unlashtirish asosiy ustunlik hisoblanadi. Milliy qadriyatlar va tarbiyaviy muhitning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlarning singdirilishi o'quvchilarga ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, matematika urf-odat va an'analar chuqur o'rgatiladi. Milliy bayramlar, qadimiy urf-odatlar, buyuk allomalar merosi ta'lim jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu esa o'quvchilarda milliy o'zlik va vatanparvarlik ruhini shakllantiradi. Dars jarayonida nafaqat bilim, balki axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, odob-axloq tamoyillari ham singdiriladi. O'quvchilarni hurmat, hamkorlik va jamoaviy ishlarga o'rgatish orqali sog'lom muhit yaratilmoqda. Bu esa yoshlarning mas'uliyatli, ijtimoiy faolligi kuchli, mehribon insonlar bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar zamonaviy ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtiriladi, bu esa yoshlarni global dunyoga ochiq, lekin o'z ildizlariga sodiq bo'lishini ta'minlaydi. "Sharqona odob" va "zamonaviy bilim" uyg'unlashib, yoshlarning madaniyatli, ma'rifatli va raqobatbardosh bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Maktablarda ota-onalar bilan muntazam hamkorlik qilinadi, bu esa oilaviy qadriyatlarni ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar nafaqat darsda, balki turli tarbiyaviy tadbirlar, musobaqa va madaniy kechalarda ham faol qatnashadilar. Yuksalish maktablaridagi muhit yoshlarning ruhiy va axloqiy barkamolligini ta'minlab, ularni kelajakda nafaqat bilimli mutaxassis, balki jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantiradi.

MUHOKAMA QISMI

Haqiqatdan ham bugungi kunda gadjetlarga qaramlik ortib borayotgani tufayli yoshlarning tarbiyasida muammolar ko'zga tashlanmoqda. Buni quyidagicha izohlash mumkin. O'quvchilar ko'proq smartfon, planshet, kompyuter o'yinlari va ijtimoiy tarmoqlarga berilib ketmoqda. Natijada: kitob o'qish odati kamaymoqda, jonli muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar sustlashmoqda, ruhiy salomatlikka bosim (tashvish, yolg'izlik, depressiya) kuchaymoqda. Avvalgi davrlarda tarbiya asosan ota-ona, mahalla va maktab uchligi orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozir esa ko'proq "tarbiyachi" rolini internet va ijtimoiy tarmoqlar egallab bormoqda. Qadimiy qadriyatlar — odob, hurmat, sabr, mehnatsevarlik — yetarli singdirilmayapti. O'quvchilar real hayotdagi qadriyatlarni emas, balki virtual olamdagi "trend" va "bloggerlarni" o'zlariga namuna qilmoqda. Gadjetsiz suhbatlar, milliy o'yinlar, birga kitob o'qish an'analarini qayta tiklash. "Odob-axloq darslari", milliy urf-odatlar asosida musobaqa va tadbirlar o'tkazish. Yoshlarni ko'proq sport, madaniyat, san'at va hunar mashg'ulotlariga jalb qilish. Faqat taqiqlash emas, balki yoshlarni ilmiy platformalar, onlayn kutubxonalar, foydali kontent tomon to'g'ri yo'naltirish kerak bo'ladi. Shunday qilib, bugungi sharoitda tarbiya jarayonini mustahkamlash uchun milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyadan oqilona foydalanish birgalikda yo'lga qo'yilishi zarur.

Yuksalish maktablari o'quvchilarga zamonaviy fanlar — matematika, fizika, axborot texnologiyalari, chet tillarini chuqur o'rgatadi. Shu bilan birga, darslarda ona tili, adabiyot, tarix va milliy urf-odatlar alohida qadrlanadi. Natijada o'quvchi raqobatbardosh bilimli bo'lish bilan birga, milliy ildizlariga sodiq bo'lib ulg'ayadi. Zamonaviy pedagogik usullar — interaktiv metodlar, STEAM dasturlari, loyihaviy ta'lim joriy etiladi. Shu bilan birga, dars va tadbirlarda odob, halollik, kattaga hurmat, Vatanga sadoqat kabi qadriyatlar singdiriladi. O'quvchilar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o'rganar ekan, bir vaqtning o'zida milliy san'at, hunarmandchilik, sport

va folklor tadbirlarida ham ishtirok etadilar. Bu esa ularda ijodiy fikrlash, milliy madaniyatni qadrlash va global dunyoga ochiqlikni uyg'otadi. Maktab ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydi, bu esa milliy qadriyatlarni oilaviy muhit bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu orqali bola nafaqat maktabda, balki oilada ham zamonaviy va milliy ruhda tarbiyalanadi.

Yuksalish maktablari yoshlarni:

ilimli, zamonaviy fikrlaydigan,

milliy qadriyatlarga hurmatli,

jamiyatga foydali shaxs qilib tarbiyalaydi. Bolalarning androidlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

Maktabgacha yosh (3–6 yosh): 20–30 daqiqa, faqat ota-ona nazoratida.

Boshlang'ich sinf (7–10 yosh): 1 soatgacha, darsdan keyin.

O'rta sinf (11–14 yosh): 1,5 soat, lekin bo'lib-bo'lib.

Yuqori sinf (15 yoshdan yuqori): 2 soatgacha, ko'proq ta'limiy maqsadda. Telefon faqat ta'limiy dasturlar, qiziqarli kitoblar, til o'rganish ilovalari, ilmiy videolar uchun ishlatilishi kerak. Keraksiz o'yin va ijtimoiy tarmoqlarga cheklov qo'yish.

Ota-ona nazorati ilovalarini o'rnatish. Shaxsiy ma'lumotlarni (ism, manzil, telefon raqami) begonalarga bermaslikni o'rgatish. Telefonni ko'zdan 40–50 sm uzoqlikda ushlash. 20 daqiqada 1 marta ko'z va tana mashqlari qilish. Kechqurun uyqudan oldin telefondan foydalanmaslik. Android vaqtini sport, rasm chizish, musiqa, o'yinchoqlar bilan o'ynash, kitobxonlik bilan muvozanatlashtirish. Bolaga: "Avval uy vazifasi va ishlaringni tugat, keyin telefon" tamoyilini o'rgatish. Androidni to'liq taqiqlash emas, balki to'g'ri me'yori va foydali yo'nalishda ishlatishni o'rgatish eng yaxshi yo'ldir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an'anaviy usullardan ancha farq qiladi. Bu globallashtirayotgan axborot makonida uni boshlang'ich ta'lim integratsiyasida tatbiq qilishning darajasi jihatidan yangi modelni ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan, ularga mos keladigan umuman yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi.

Yuksalish maktablarida ta'lim jarayoni oddiy bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu dargohning eng katta afzalligi — zamonaviy ta'lim standartlarini milliylik ruhda uyg'unlashtirishda ko'rinadi. Bir tomondan, o'quvchilar zamonaviy fanlar, chet tillari va raqamli texnologiyalarni egallab, global raqobatga tayyor bo'ladilar. Ikkinchi tomondan, ular ona tili, tarix, adabiyot, milliy urf-odat va qadriyatlarni chuqur o'rganib, o'z ildizlariga sodiq qoladilar. Maktabda yoshlar ilimli bo'lish bilan birga, odob, halollik, hurmat, sadoqat, mehr-oqibat kabi sharqona qadriyatlarga ham yo'naltiriladi. Bu ularni kelajakda nafaqat bilimli mutaxassis, balki jamiyatga foydali inson sifatida shakllantiradi. Yuksalish maktablarida tashkil etiladigan tadbirlar, milliy bayramlar, tarixiy shaxslar merosini o'rganish orqali yoshlar milliy o'zlikni anglab, o'z xalqining farzandi ekanidan faxrlanadilar. Ta'lim jarayoniga ota-onalar, mahalla va keng jamoatchilik jalb etilgani bois, tarbiya jarayoni uzviy va samarali kechadi. Bu esa yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, mustahkam irodali va mas'uliyatli shaxs etib tarbiyalaydi. Dars o'tish jarayonini har tomonlama qo'llab quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan darsliklarning yillik foydalanish to'lovi bepul etilib belgilandi. Bu ham Ta'limga qaratilgan e'tiborning natijasi o'laroq yuzaga kelgan. Yuksalish maktablari yosh avlodga:

zamonaviy bilim va raqobatbardoshlik,
milliy qadriyat va ma'naviyat,
jamiyat oldidagi mas'uliyatni uyg'un holda singdiradi.

Shu bois bu maktablarda ta'lim olgan o'quvchi nafaqat kelajakda kasb-hunar egasi, balki milliy g'ururga ega, zamonaviy dunyoqarashli, barkamol shaxs sifatida voyaga yetadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy tafakkurli, mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs qilib tarbiyalashni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Yuksalish maktablari o'z faoliyati orqali kelajak avlod uchun muhim vazifani ado etmoqda.

Yuksalish maktablarida joriy etilgan ta'lim modeli zamonaviy o'quv dasturlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarni bir vaqtning o'zida ham global dunyo bilan hamqadam, ham o'z milliy ildizlariga sodiq shaxslar qilib tarbiyalaydi. Bu uyg'unlik kelgusida ularning xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonishiga, shu bilan birga o'zligini saqlashiga yordam beradi. So'nggi yillarda yoshlar orasida gadjetlarga qaramlik, ijtimoiy aloqalarning sustlashuvi, ruhiy tushkunlik kabi muammolar ko'paymoqda. Yuksalish maktablari o'quvchilarni sog'lom muhitda tarbiyalash, ularning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash va milliy qadriyatlar asosida ijobiy dunyoqarashni shakllantirish orqali ushbu muammolarga yechim taklif etadi. Milliy qadriyatlar – xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi va hayotiy tajribasi, zamonaviylik esa taraqqiyot va yangilanish manbai hisoblanadi. Agar yosh avlod milliy ildizlardan oziqlanib, zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirsa, u ma'naviy barkamol, ilmiy va raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga etadi. Demak, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish – yoshlarni sog'lom, ma'naviyatli, hamda kelajakda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan barkamol inson etib tarbiyalashning eng muhim yo'lidir.

Kelgusi 10 yil ichida bu maktablarda tahsil olgan yoshlar orasidan ilmiy izlanishlar, startaplar, IT loyihalari va ixtirolar paydo bo'lishi tabiiydir. Chunki ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki ijodkorlik va yangilik yaratishga yo'naltirilgan. Yuksalish maktablari bitiruvchilari kelgusida turli sohalarda faoliyat yuritib, o'z bilim va malakasi bilan O'zbekiston taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. 10 yil ichida bu maktablar minglab yoshlarni tarbiyalab, ularni jamiyatning turli qatlamlarida yetakchi va tashabbuskor shaxslar sifatida yetishtiradi. Eng muhim yutuqlardan biri — Yuksalish maktablari o'zining ta'lim-tarbiya tajribasi orqali milliy ta'lim brendini yaratishi mumkin. Bu model keyinchalik boshqa maktablarda ham tatbiq qilinib, butun respublika bo'ylab yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan umiddaman. Zero tarbiya va ta'lim inson hayotining ajralmas qismi. Tabiya insonni ko'rki ziynati. Tarbiyali inson yurtning ko'rki. Chunki bunday jamiyatga tarbiyali kishilar bir birlarini hurmat qilishadi. Hurmat va ishonch bor joyda tinchlik totuvlik hukm suradi. Yoshlarning qimmatli vaqtini mazmunli tashkil etish — ularni bekorchilik, zararli odatlardan asrab, bilim olish, ijodkorlik, sport va milliy qadriyatlarga yo'naltirish demakdir. Bunday tarbiya orqali ular maqsadli, intiluvchan va mas'uliyatli bo'lib voyaga yetadilar. Demak, yoshlarning vaqtini to'g'ri boshqarish — ularning porloq kelajagi va jamiyat taraqqiyotining eng ishonchli garovidir. "Har daqiqa — kelajakka sarmoya." darhaqiqat bugungi kunda yosh avlodni ta'lim tarbiya jarayoni haqida keng va ko'p muhokama qilsak arziydi. Vaqt — bu eng katta boylik. Uni na sotib olish, na orttirish mumkin. Lekin uni to'g'ri sarflash — kelajakni yuksak qurish demakdir. Agar biz bugun har daqiqamizni bilim olishga, sog'lom turmush tarziga, ijodkorlik va ma'naviy boylikka bag'ishlasak, ertaga bizni buyuk yutuqlar,

porloq kelajak kutadi. Shuni unutmang: bekor o'tgan bir daqiqa — qo'ldan ketgan imkoniyatdir. Mazmunli o'tgan bir daqiqa esa — kelajak uchun mustahkam poydevordir. "Har daqiqa — kelajakka sarmoya" degan shior yoshlarni vaqtning qadriga yetishga, uni bekor o'tkazmasdan bilim, ijod, sport va ma'naviyatga sarflashga undaydi. Vaqtni to'g'ri boshqarish orqali ular o'z hayotining mustahkam poydevorini quradilar. Shunday ekan, bugungi mazmunli daqiqa — ertangi porloq kelajakning eng ishonchli garovidir. Yosh avlodni kelajagi, porloq yurt kelajagi, ularga qaratilgan e'tibor va investitsiya katta imkoniyatlar uchun eshik ochadi. Jahonning eng ilg'or ta'lim tarbiya jarayonidan kerakli andozalar olish yuksak ma'naviyatli, madaniyatli va yetuk bilimli kadrlarni jamiyatga yetishtirib beradi. Tarbiya jarayoniga qanchalik e'tibor qaratilsa shunchalik ta'lim sifati yaxshilanadi. Shu bilan birga tarbiyaviy muhit, Oiladagi tarbiya qanchalik zamonaviy talablarga mos bo'lsa shunchalik yoshlarni tushunish va do'stona munosabatlar mustahkam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o'qishga bo'lgan munosabati// -Journal of integrated education and research. Volume 2, ISSUE 1 January 2023. pp 150-154.
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi// -Conferencea virtual international. ARTICLES 2023. march pp 163-172.
4. H. Xampaev – Ommaviy madaniyat va milliy qadriyatlar (O'zbekistonda chop etilgan tadqiqotlar mavjud).
5. M. Jo'rayev – Ommaviy madaniyat falsafasi (Toshkent, 2010-yillar atrofida chop etilgan).